

VII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022- yilning yanvar-mart oylarida ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 1764 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-martda yalpi hududiy mahsulotning 57,4 foizi (2021- yil yanvar-martda 56,9 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1119,9 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 23,8 foizi) yoki 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 117,9 foizni tashkil qildi;

-2726,8 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 101,1 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,3 foizi) tashkil qildi.

-1087,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 29,6 foizi) o'zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 84,7 % tashkil qildi;

-1137,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 78,9 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 100,5 foizni tashkil qildi;


-avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,8 foizga (umumiy yuk aylanmasiga nisbatan 83,7 ulushi), yo'lovchi aylanmasining esa 103,1 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasiga nisbatan 97,5 ulushi) teng bo'ldi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,9 foizi yoki 3 417,1 mlrd. so'm (3,6 foizga o'sish kuzatildi) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 66,8 foiz ulushi yoki 2 240,4 mlrd. so'mni tashkil qildi;

-36,0 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 49,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-mart oylarida (jamiga nisbatan foizda)



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi quyidagicha

| | <i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so‘m</i> | <i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i> |
|--|--|--|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 726,8 | 91,2 |
| Sanoat | 1 119,9 | 23,8 |
| Qurilish | 1 137,3 | 78,9 |
| Chakana savdo | 3 417,1 | 91,9 |
| Xizmatlar | 2 240,4 | 66,8 |
| Eksport, mln. AQSH doll. | 36,0 | 49,1 |
| Import, mln. AQSH doll. | 45,2 | 61,7 |

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi quyidagicha ifodalanadi:



(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

YaHM Sanoat Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar Qurilish Xizmatlar Savdo



2021- yil yanvar-mart




2022- yil yanvar-mart

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

| | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2021- yil</i> | <i>2022- yil</i> | <i>(+-)</i> |
|--|----------------------------|------------------|------------------|--------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | <i>birlik</i> | 27800 | 32257 | 4457 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar | <i>birlik</i> | 3050 | 1764 | -1286 |
| YAHM | % | 56,9 | 57,4 | 0,5 |
| Sanoat | % | 21,6 | 23,8 | 2,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 99,3 | 99,3 | - |
| Investitsiya | % | 42,5 | 29,6 | -12,9 |
| Qurilish | % | 73,4 | 78,9 | 5,5 |
| Savdo | % | 92,8 | 91,9 | -0,9 |
| Xizmatlar | % | 67,4 | 66,8 | -0,6 |
| Yuk tashish | % | 80,5 | 80,5 | - |
| Yuk aylanmasi | % | 84,1 | 83,7 | -0,4 |
| Yo'lovchi tashish | % | 97,0 | 95,1 | -1,9 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 97,7 | 97,5 | -0,2 |
| Ekspart | % | 35,8 | 49,1 | 13,3 |
| Import | % | 52,9 | 61,7 | 8,8 |


**2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**



Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi, foizda

2022- yil yanvar-mart


2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 57,4 foizni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-martida 56,9 foiz). YAHM tarkibida ko'payishi yirik korxonalar ulushi tushishi bilan tushuntiriladi.



**Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)**


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (209,8 mlrd. so'm), Qarshi tumani (176,4 mlrd. so'm), Yakkabog' tumani (121,8 mlrd. so'm), Qamashi tumani (87,2 mlrd. so'm), Kitob tumani (77,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Muborak tumani (25,5 mlrd. so'm), Dehqonobod tumani (23,3 mlrd. so'm) va Kasbi tumani (22,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da
sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kitob (98,0 foiz), Shahrisabz (82,3 foiz), Shahrisabz shahri va Yakkabog' (77,6 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Nishon (4,0 foiz), G'uzor (4,6 foiz), Kasbi (5,9 foiz), Dehqonobod (9,5 foiz) va Muborak (16,0 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2022- yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Chiroqchi (387,2 mlrd. so'm), Kitob (254,1 mlrd. so'm), Shahrisabz (222,5 mlrd. so'm), Koson (217,9 mlrd. so'm), G'uzor (212,1 mlrd. so'm), Qarshi (211,1 mlrd. so'm), Dehqonobod (192,2 mlrd. so'm), Yakkabog' (183,6 mlrd. so'm), Qamashi (175,2 mlrd. so'm), Kasbi (171,0 mlrd. so'm) va Nishon (155,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qarshi (47,9 mlrd. so'm) va Shahrisabz (13,2 mlrd. so'm) shaharlarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022- yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (683,6 mlrd. so'm), Chiroqchi (410,8 mlrd. so'm), Koson (375,3 mlrd. so'm) tumanlari va Shahrisabz shahri (270,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Kitob (261,9 mlrd. so'm), Qamashi (194,6 mlrd. so'm), Yakkabog' (191,9 mlrd. so'm) va G'uzor (144,2 mlrd. so'm) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi tashkil qildi.

2022- yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



2022- yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



2022- yil yanvar-martda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

| | <i>Sanoat</i> | <i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i> | <i>Investitsiya</i> | <i>Qurilish</i> | <i>Chakana savdo</i> | <i>Xizmatlar</i> |
|-----------------------------|---------------|---|---------------------|-----------------|----------------------|------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 23,8 | 99,3 | 29,6 | 78,9 | 91,9 | 66,8 |
| Qarshi sh. | 34,5 | 99,6 | 19,7 | 61,8 | 73,9 | 56,9 |
| Shahrisabz sh. | 77,6 | 99,8 | 97,4 | 87,6 | 99,1 | 51,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| G'uzor | 4,6 | 98,4 | 5,8 | 74,8 | 98,0 | 71,1 |
| Dehqonobod | 9,5 | 98,7 | 83,9 | 100,0 | 98,8 | 79,0 |
| Qamashi | 63,2 | 99,5 | 77,3 | 100,0 | 98,1 | 77,0 |
| Qarshi | 41,4 | 98,5 | 74,5 | 97,4 | 97,2 | 79,6 |
| Koson | 40,8 | 99,9 | 98,6 | 74,1 | 98,8 | 84,0 |
| Kitob | 98,0 | 99,8 | 19,1 | 100,0 | 96,7 | 84,1 |
| Mirishkor | 23,0 | 99,8 | 29,2 | 100,0 | 98,9 | 86,1 |
| Muborak | 16,0 | 97,0 | 5,2 | 90,1 | 98,8 | 63,1 |
| Nishon | 4,0 | 99,9 | 40,9 | 100,0 | 98,5 | 81,9 |
| Kasbi | 5,9 | 100,0 | 64,6 | 100,0 | 98,2 | 82,5 |
| Chiroqchi | 62,2 | 99,9 | 97,2 | 64,9 | 96,8 | 70,8 |
| Shahrisabz | 82,3 | 99,7 | 75,0 | 99,8 | 93,5 | 45,1 |
| Yakkabog' | 77,6 | 98,6 | 95,0 | 99,2 | 98,2 | 77,3 |

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining kichik biznesdagi eng yuqori ulushi Kitob (98,0 foiz), Shahrisabz (82,3 foiz), Shahrisabz shahri va Yakkabog' mos ravishda (77,6 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Koson (98,6 foiz), Shahrisabz shahri (97,4 foiz), Chiroqchi (97,2 foiz) va Yakkabog' (95,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Qurilish sohasida Dehqonobod, Qamashi, Kasbi, Kitob, Mirishkor, Nishon tumanlarida mos ravishda (100,0 foiz), Shahrisabz (99,8 foiz) va Yakkabog‘ (99,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Chakana savdoda Shahrisabz shahri (99,1 foiz), Mirishkor (98,9 foiz) va Dehqonobod, Koson, Muborak mos ravishda (98,8 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasida Mirishkor (86,1 foiz), Kitob (84,1 foiz), va Koson (84,0 foiz) tumanlarini tashkil etadi.

Joriy davrda mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Qurilish sohasida respondentlarning 41,7 foiz qulay, 48,5 foiz qoniqarli deb hisoblashini, savdo sohasida – 60,5 foiz qulay va 34,9 foiz qoniqarli, mos ravishda xizmatlar sohasida – 54,0 foiz va 38,0 foiz, sanoatda – 48,9 foiz va 39,6 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 37,6 foiz va 50,5 foiz qoniqarli tashkil qilganini ko‘rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 9,8 foiz, sanoatda – 11,5 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 11,9 foiz, xizmatlarda – 8,0 foiz va savdoda – 4,6 foizni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash 2022- yil I -chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida qulay 62,4 foiz, qoniqarli 33,7 foiz, sanoat korxonalari qulay 62,1 foiz, qoniqarli 33,9 foizi, savdo – qulay 68,1 foiz, qoniqarli 28,9 foiz, xizmatlarda qulay 66,2 foiz, qoniqarli 31,0 foiz va qurilish tarmog‘ida qulay 62,6 foiz, 31,9 foiz qoniqarli bo‘lishi kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.